



FOLKLOR MATNLARI, ULARNING LINGVISTIK JIHATDAN O'RGANILISHI VA AHAMIYATI

. Termiz davlat universiteti magistranti

Sheraliyeva Iroda Aliqul qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklor matnlari va ularning lingvistik jihatdan o'rganilishi, til tizimida tutgan o'rni hamda milliy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, folklor namunalari aks etgan lingvistik xususiyatlar yoritiladi. Maqola tilshunoslik, xususan, folklorshunoslik rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: folklor, lingvistika, xalq og'zaki ijodi, milliy madaniyat.

“Folklor” atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib “xalq donoligi” degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor, deganda xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari-me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi.

Abstract: This article analyzes folklore texts and their linguistic study, their role in the language system, and their national-cultural significance. The linguistic features reflected in folklore samples are also highlighted. The article makes a worthy contribution to the development of linguistics, particularly folklore studies.

Keywords: folklore, linguistics, oral folk art, national culture.

Аннотация: В данной статье анализируются фольклорные тексты и их лингвистическое изучение, их место в языковой системе и национально-культурное значение. Также освещаются лингвистические особенности, отраженные в образцах фольклора. Статья вносит достойный вклад в развитие языкознания, в частности, фольклористики.

Ключевые слова: фольклор, лингвистика, устное народное творчество, национальная культура.



Dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot”, “og‘zaki ijod” deb yuritilib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ilk bor Hodi Zarif tomonidan qo‘llanilgan “folklor”, “O‘zbek folklori” nomlari bilan atalgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘plab janrlardan tashkil topgan og‘zaki so‘z san’ati namunalari bo‘lib xalq hayoti, tarixi, orzu-intilishlari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda o‘zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og‘izdan og‘izga, avloddan avlodlarga o‘tib keladi. Ular yozma adabiyotdan farqli ravishda muallifi aniq bo‘lmaydi va ko‘pincha jamoaviy ijod mahsuli hisoblanadi.

Folklor matnlarining asosiy turlariga ertak, doston, maqol va matallar, topishmoqlar, turli marosim qo‘shiq-lari, afsona, rivoyat va tarixiy yoki diniy asosga bo‘lgan hikoyalarni kiritish mumkin. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: anonimligi, og‘zaki tarqalishi, ko‘p variantlilik, ya’ni bir folklor matnining turli hududda turlicha aytilishi, an’anaviyligi va badiiyligidir.

Folklor matnlarining ahamiyatli jihati o‘zida milliy madaniyatni va tarixiy xotirani saqlaydi, xalqning o‘tmishi, turmushi tarzi va ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi, yosh avlodga axloqiy qadriyatlarni singdiradi, bevosita tarbiyaviy ahamiyatga ega, tilning boyligini oshiradi, qadimgi til qatlamlarini saqlab qoladi.

Folklor matnlarini ilmiy o‘rganish Folklorshunoslik va Lingvistika fanlari kesishgan nuqtada amalga oshiriladi. Folklor matnlarini lingvistik jihatdan o‘rganish ularning ichki til tizimini ochib berishga xizmat qiladi. Ularning lingvistik xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi: fonetik, leksik, grammatik, stilistik kabi. Folklor namunalaridan olib tahlilga tortganimizda turli sheva va lahjalarga xos tovush o‘zgarishlarini uchratamiz. Matn tarkibida arxaizm, dialektizm va frazeologizm kabi birliklarni ham ajratib tahlil qilamiz. Qolaversa, og‘zaki ijod namunalari metaforalar, epitetlar, ramziy obrazlarga boy bo‘lib, biz ularni ham lingvistik tahlilga tortamiz.

O‘zbek xalq ertaklaridan biri – “ Zumrad va Qimmat” ertagi folklor matnlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda qulay manba hisoblanadi. Masalan undagi quyidagi parchani lingvistik jihatdan tahlil qilib ko‘rmiz.



“Bor ekan, yo‘q ekan, qadim zamonda bir chol bo‘lgan ekan. Uning Zumrad degan qizi bor ekan, yana Qimmat degan o‘gay qizi ham bor ekan.”

Ushbu parchada “ekan” so‘zining takroriy qo‘llanishi matnga o‘ziga xos ritm va ohangdorlik beradi. Bu folklor matnlariga xos bo‘lib, eslab qolishni osonlashtiradi,

“bor ekan, yo‘q ekan”, “bo‘lgan ekan”, “bor ekan”. Matnda bir qator an’anaviy va obrazli birliklar mavjud:

“Qadim zamon” — aniq vaqtni bildirmaydi, umumlashtirilgan tarixiylikni ifodalaydi, “kampir” — xalqona leksika, oddiy hayotiy obraz, “o‘gay qiz” — ijtimoiy munosabatni bildiruvchi birlik. Bu birliklar ertakning milliy va madaniy kontekstini ochib beradi. Matn sodda va takroriy gaplardan tashkil topgan:

Sodda gaplar ustun, fe‘llar asosan o‘tgan zamonda (“bo‘lgan ekan”, “bor ekan”)

Bu esa ertakning bayon uslubini soddalashtiradi va tinglovchi uchun tushunarli qiladi.

Ertakning boshlanishi bo‘lgan “bor ekan, yo‘q ekan” formulasi folklorga xos an’anaviy kirish shakli hisoblanadi. Bu ibora real va noreal olam chegarasini yo‘qotadi, tinglovchini ertak muhitiga olib kiradi. Shuningdek, Zumrad va Qimmat obrazlari orqali qarama-qarshilik (antiteza) yaratiladi: Zumrad — ijobiy obraz,

Qimmat — salbiy obraz.

Bu ertakning asosiy maqsadi — axloqiy tarbiya berish: yaxshilik → mukofotlanadi (Zumrad), yomonlik → jazolanadi (Qimmat). Bu orqali ertak o‘quvchiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yoki xalq tomonidan oldindan ishlatilib kelingan quyidagi topishmoqni ham tahlil qilib ko‘rganimizda bir qancha lingvistik jihatlarga e’tibor qaratishimiz kerak.

Tog‘da talaymonni ko‘rdim,

Suvda Sulaymonni ko‘rdim.

Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim,

Yumalab yotgan toshni ko‘rdim.



Topishmoqda soʻzlar koʻchma maʼnoda (metaforik) qoʻllangan boʻlib, yashirin denotatlarni ifodalaydi. Har bir misrada predmet yoki hodisa bevosita nomlanmaydi, balki assotsiativ belgilar orqali beriladi:

talaymon → boʻri (yirtqichlik semasi asosida)

sulaymon → baliq (ramziy, obrazli nomlash)

tuzsiz osh → sumalak (tayyorlanish xususiyatiga koʻra)

tosh → toshbaqa (tashqi oʻxshashlik asosida)

Topishmoqda ohangdosh birliklar (talaymon – sulaymon) qoʻllanib, fonetik uygʻunlik yuzaga kelgan. Bu esa matnning eslab qolinishini osonlashtiradi va uning estetik taʼsirini kuchaytiradi.

Topishmoqning asosiy vazifasi — tinglovchini fikrlashga undash. Shu bois maʼno yashirin shaklda beriladi, adresat (tinglovchi)dan kognitiv faoliyat talab etiladi.

Yana bir misol qilib xalq qoʻshigʻini olamiz .

Huya, bolam, huyang qani?

Buvang bergan tuyang qani,

Buvang bergan tuyang boʻlsa,

Boqib yurganlaring qani?

Adiring-choʻllaring qani?

Huya, bolam, huya!

”Huya”nomli xalq qoʻshigʻida takror: “huya”, “qani” soʻzlari koʻp takrorlanib, matnga ohangdorlik va ritm bergan. Alliteratsiya: “b”, “q”, “t” undoshlari takrori (bolam, buvang, bergan, tuyang) nutqni musiqiy qilgan. Intonatsiya: savol ohangi ustun (qani?), bu esa dialogik va emotsional taʼsirni kuchaytiradi.

Soʻzlar xalqona va sodda: bolam, buvang, tuya, adir, choʻl.

Leksik birliklar chorvachilik hayoti bilan bogʻliq — bu qoʻshiqning ijtimoiy-madaniy muhitini koʻrsatadi.

“Huya” — onomatopeik (ohang ifodalovchi) birlik, maʼnodan koʻra hissiy taʼsir beradi.



“Qani” so‘zi — rag‘batlantiruvchi-sorov yuklama, bola bilan muloqot funksiyasini bajaradi.

Fe‘llar: bergan, boqib yurgan — sifatdosh shakllar (harakatning davomiyligi va belgini bildiradi)

Otlar: tuyang, buvang — egalik qo‘shimchalari (-ng) bilan kelib, yaqinlik va tegishlilikni bildiradi

So‘roq yuklamasi: qani — sintaktik va pragmatik vazifa bajaradi (savol + chaqiriq)

Qo‘shiq yuzaki qaraganda savollar ketma-ketligi, lekin aslida: bola e‘tiborini jalb qilish ,tasavvurini kengaytirish

“Tuya”, “adir”, “cho‘l” — ramziy obrazlar, kenglik, boylik va hayot tarzini ifodalaydi . Matnda real va xayoliy tasvirlar uyg‘unlashgan.

Qo‘shiqning vazifasi: bolani ovutish va uxlatish ,e‘tiborini jamlash , nutqiy rivojiga ta’sir qilish

Kommunikativ funksiyasi — mehr, yaqinlik va tarbiyaviy ta’sir .

Folklor matnlari — xalq tafakkuri, dunyoqarashi va tarixiy tajribasining til orqali ifodalangan noyob ko‘rinishidir. Ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish natijasida ushbu matnlarning ichki tuzilishi, semantik qatlamlari hamda kommunikativ imkoniyatlari chuqurroq ochib beriladi. Xususan, topishmoqlar va xalq qo‘shiqlari misolida ko‘rish mumkinki, fonetik uyg‘unlik, ritmik takrorlar, sintaktik parallelizm va ko‘chma ma’nodlilik folklor matnlarining asosiy belgilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday matnlarda til birliklari nafaqat nominativ, balki ekspressiv va pragmatik vazifani ham bajaradi. Masalan, allalar va huyalarda takroriy birliklar, so‘roq shakllari hamda ohangdor unsurlar orqali emotsional ta’sir kuchaytiriladi, tinglovchi bilan bevosita muloqot yuzaga keladi. Topishmoqlarda esa yashirin ma’no, metafora va ramziy obrazlar orqali tafakkur faollashtiriladi. Bu jihatlar folklor matnlarini oddiy nutq namunalaridan ajratib turuvchi muhim lingvistik xususiyatlardir.



Shuningdek, folklor matnlarining leksik tarkibi xalqning yashash tarzi, ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Tabiat, chorvachilik, oila va turmushga oid birliklar ularning milliy koloritini belgilaydi. Shu bois, folklor matnlarini o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, folklor matnlari lingvistik jihatdan murakkab va ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, ular tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik imkoniyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ushbu matnlarda badiiylik va kommunikativlik uyg‘unlashib, xalqning estetik didi hamda tafakkur tarzini aks ettiradi.

Folklor matnlarining lingvistik tahlili ularning ichki qonuniyatlarini ochib berish, badiiy vositalarning funksiyasini aniqlash va nutq jarayonidagi o‘rnini belgilash imkonini beradi. Ayniqsa, metaforik ifodalar, takror va parallel konstruksiyalar bu matnlarning asosiy uslubiy tayanchi ekanligi kuzatiladi.

Bundan tashqari, folklor matnlari milliy madaniyatni saqlash va uzatishda muhim vosita hisoblanadi. Ularni ilmiy asosda o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki folklorshunoslik, madaniyatshunoslik va psixolingvistika kabi sohalarning rivojiga ham xizmat qiladi.

Shu jihatdan, folklor matnlarini lingvistik jihatdan chuqur o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u milliy til boyligini asrash va uni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To‘ra Mirzayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.
2. Mamatqul Jo‘rayev. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. B. Sarimsoqov. O‘zbek folklori janrlari. – Toshkent: Fan, 1984.
4. Hodi Zarif. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: Fan, 1978.
5. Vladimir Propp. Morfologiya skazki (Ertak morfologiyasi). – Moskva, 1928.
6. Alan Dundes. Folklore Matters. – Bloomington: Indiana University Press, 1989.



7. Richard M. Dorson. Folklore and Folklife: An Introduction. – Chicago: University of Chicago Press, 1972.
8. A. N. Afanasyev. Narodnye russkie skazki. – Moskva, 1982.
9. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. O‘zbek xalq ijodi namunalar to‘plami. – Toshkent, turli yillar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Folklorshunoslik fanidan o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.
11. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2007.
12. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
13. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1990.
14. Folklor matnlarini lingvistik tahlil qilish masalalari. – Toshkent: Fan, 2015.